

IJTIMOIIY-IQTISODIY JARAYONLARNING RAQAMLASHUVIDA ELEKTRON TIJORAT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12104012>

Safarova Dilshodaxon Eshmuxammadovna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning raqamlashuvida elektron tijoratning taraqqiy etishi unga ta'sir etuvchi omillarning rivojlanishiga chambarchas bog'liqdir.

Kalit so'zlar

elektron tijorat, aholi daromad darajasi, internetdan foydalanish tajribasi, Internet qamrovi va tezligi.

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭЛЕКТРОННУЮ КОММЕРЦИЮ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация

Электронная коммерция становится неотъемлемой частью современной экономики. Развитие электронной коммерции в условиях цифровизации социально-экономических процессов тесно связано с развитием влияющих на нее факторов.

Ключевые слова

электронная коммерция, уровень доходов населения, опыт использования Интернета, покрытие и скорость Интернета.

FACTORS AFFECTING E-COMMERCE IN THE CONDITIONS OF DIGITIZATION OF SOCIO-ECONOMIC PROCESSES

Annotation

E-commerce is becoming an integral part of the modern economy. The development of e-commerce in the digitization of socio-economic processes is closely related to the development of factors affecting it.

Keywords

e-commerce, population income level, internet usage experience, internet coverage and speed.

Butun jahon bo'ylab globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi tezkor zamonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning raqamlashuvi dunyoning yetakchi davlatlari qatorida davlatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga joriy etilmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning raqamlashuvi axborot texnologiyalari bilan bog'langan elektron tijorat (e-commerce), tovarlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrda qabul qilingan "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6079-sonli Farmoniga asosan O'zbekistonda elektron tijoratni yanada rivojlantirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga ko'mak berdi.

O'zbekiston Respublikasining 29 sentyabr 2022 yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to'g'risida” gi O'RQ-792-sonli Qonunining 3-moddasiga ko'ra, elektron tijorat – tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi hisoblanadi.

Elektron tijorat (e-commerce) Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalangan holda virtual bitimlarni amalga oshirishni osonlashtiruvchi asosiy funksiyalar bajarilishini ta'minlab beradi. Umuman olganda, bu imkoniyatlar yetkazib berish zanjiri transfarmatsiyaga, xaridorlarni axborotlashtirish, shuningdek, buyurtmalar va to'lovlarni qabul qilishni tashkil qilishga olib keladi.

Elektron tijorat an'anaviy savdo turidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi [2]:

- xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega ekanligi;

- savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib boorish imkoniyati mavjudligi;

- ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli xaridorlarning aloqa vositalari yordamida sotuvchilar bilan muloqatda bo'lish imkoniyati;

- kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va shu mahsulotlari bor firmalarga murojaat qilishda texnika va transport vositalaridan samarali foydalanish, mahsulotlarni bir joyga yig'ish va ularni sotib olishda aniq manzillarga murojaat qilish. Ortiqcha vaqt va xarajatlarni kamaytiradi;

- xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati;

- hozirgi kunda chiqqan jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati va hokazo.

Elektron tijoratda biznes-operatsiyalarni ta'minlovchi oltita element mavjud:

1. Ma'lumotlarning elektron almashinuvi (Electronics Data Interchange, EDI);
2. Kapitalning elektron harakatlanishi (Electronic Funds Transfer, EFT);
3. Elektron savdo (inglizcha e-trade);
4. Elektron pullar (e-cash);
5. Elektron marketing (e-marketing);
6. Elektron bank (e-banking);

O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat foydalanuvchilarining onlayn xarid qilishga jalb qilinishini belgilab beruvchi uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Daromad darajasi.** Aholining yuqori daromad darajasi Internetda xarid qilish faolligini oshiradi. 1-jadval ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, 2023 yilga aholi real umumiy daromadlar hajmi 662 749,9 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 102,4 % ni tashkil etgan. Aholi umumiy daromadlari hajmi 2023 yilda 728 926,1 mlrd.so'mga teng bo'lib, 2019 yilga nisbatan deyarli 2 barobarga oshgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlari o'sish sur'ati 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 112,6 foizga teng bo'lgan. Kambag'allik darajasi 2023 yilga kelib 11 foizni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 6 (17% - 11%) foizga kamaygan. 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan televizorlar soni, mobil telefonlar soni, shaxsiy kompyuterlar soni ham 2023 yilga kelib o'tgan yillarga nisbatan ortganligi aholining turmush darajasi bir qator yaxshilangan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari [15]

Ko'rsatkich nomi	O'lcho v birligi	2019	2020	2021	2022	2023
Aholi real umumiy daromadlar hajmi	mlrd. so'm	319 216,2	367 456,6	468 448,4	568 527,8	662 749,9
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar o'sish sur'ati	%	104,2	98,6	110,7	107,3	102,4
Aholi umumiy daromadlari hajmi	mlrd. so'm	365 598,3	414 968,7	519 181,4	633 567,4	728 826,1

Aholi jon boshiga umumiy daromadlari o'sish sur'ati	%	119,3	111,3	122,7	119,5	112,6
Kambag'allik darajasi	%			17,0	14,1	11,0
Kam ta'minlangan aholi ulushi	%	11,0	11,5			
100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan televizorlar soni	dona	160,0	162,0	170,0	171,0	176,0
100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan mobil telefonlar soni	dona	282,0	287,0	308,0	309,0	349,0
100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan shaxsiy kompyuterlar soni	dona	55,0	60,0	63,0	64,0	66,0

2. Internetdan foydalanish tajribasi. Internet foydalanuvchilarini onlayn-xaridlar amalga oshirishga jalb qilinganlik darajasi ularning Internetda ishlash tajribasi bilan bog'liq bo'lishi to'g'risidagi qonuniyatga ko'ra, internetdan foydalanish tajribasi qanchalik ko'p bo'lsa, elektron tijorat xizmatlaridan shunchalik ko'proq foydalanadi. 2-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha dinamikasini olsak, 2022 yilga kelib, deyarli barcha yo'nalishlarda o'sish kuzatilgan. Faqatgina sun'iy yo'ldoshli keng yo'lakli tarmoq (sun'iy yo'ldosh aloqasi orqali) bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi o'tgan yillarga nisbatan kamayib, 2022 yilda 3,3 foizga teng bo'lgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi internet auditoriyasining o'zgarishi [15]

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2018	2019	2020	2021	2022
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi	mlrd. so'm	7 732,1	8 491,9	10 777,0	16 939,5	27 755,0
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi	%	1,8	1,5	1,6	1,7	1,9
Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi	mlrd. so'm	105,2	260,0	591,4	3 907,3	9 694,0
Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi	%	0,0	0,1	0,1	0,6	1,2

ulushi						
Elektron tijorat savdo aylanmasi	mlrd. so'm	40,9	275,3	1002,5	5987,7	10868,8
Kompyuterdan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta yoshdagi aholi ulushi	%	49,7	49,8	52,5	58,2	58,8
Mobil uyali telefondan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta yoshdagi aholi ulushi	%	93,5	96,9	93,4	95,7	97,8
Qayd qilingan (simli) tor yo'lakli tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	%	1,1	0,6	0,6	1,0	1,2
Qayd qilingan (simli) keng yo'lakli tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	%	2,4	0,3	1,2	1,8	3,6
Qayd qilingan yer ustidagi (simsiz) keng yo'lakli tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	%	5,3	6,6	8,1	11,7	13,9
Sun'iy yo'ldoshli keng yo'lakli tarmoq (sun'iy yo'ldosh aloqasi orqali) bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	%	-	4,9	5,1	3,6	3,3
Portativ qurilmadan foydalaniladigan keng yo'lakli mobil tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	%	68,2	84,2	86,1	78,3	85,7
Kompyuterga moslashtirilgan SIM-karta yoki USB modemdan foydalaniladigan keng yo'lakli mobil tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	%	9,7	1,6	0,2	6,6	6,7

3. Yashash joyi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internetda mahsulot xarid qiluvchilarning asosiy qismi asosan (76%) Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa sharlarda yashaydi. Bundan tashqari, bu munosabat daromad va Internetdan foydalanish tajribasi to'g'risida so'z ketganda ham saqlanib qoladi.

KPMG xalqaro auditorlik kompaniyasi O'zbekistondagi elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravarga kengayishini prognoz qildi. Kompaniya o'z hisobotida bozorning kengayishiga ta'sir qiluvchi omillar va to'siqlarni sanab o'tgan [14].

O'zbekiston chakana savdo bozori 2022 yil 31-dekabr holatiga 14 mlrd. dollarga baholangan. 2027-yil yakunigacha bu ko'rsatkich 19,6 mlrd. dollarga yetishi kutilmoqda. Elektron savdo bozori 2022-yil 31-dekabr holatiga jami chakana savdo bozorining 2,2 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2027-yil yakunlariga borib 9 foizdan 11 foizgacha oraliqda shakllanishi kutilmoqda. Ya'ni 1,8–2,2 mlrd dollar bo'lishi, o'sish tempi 2022–2027-yillar davomida 41,4–47,4 oralig'ida bo'lishi prognoz qilingan.

Mamlakat aholisi 36 mln 372 ming nafarni (2023-yil 1-iyul) tashkil etadi va aholining 40 foizi – 14 mln 393 ming nafari 15–39 yoshda. Mamlakatdagi odamlarning 23 mln 533 ming nafari internetdan foydalanadi. Aholi orasida bank xizmatlari qamrovi 49 foizni, internet qamrovi 77 foizni tashkil etmoqda.

Elektron tijorat bozorida eng ko'p texnika va elektronika bilan savdo amalga oshirilmoqda. Keyingi o'rinlarni kiyim va aksessuarlar, uy uchun kerakli buyumlar, ovqat va ichimliklar, sog'liq va go'zallik uchun kerak bo'ladigan shaxsiy vositalar egallaydi.

2027-yilga borib mamlakatda internet qamrovi darajasi 87 foizga yetishi kutilmoqda. O'zbekistonda elektron tijorat bozori o'sishi uchun yaxshi imkoniyat mavjud. Birgina 2018–2022-yillar oralig'ida elektron tijoratning umumiy chakana savdo bozoridagi ulushi 0,6 foizdan 2,2 foizgacha o'sdi. Lekin, shunga qaramasdan, mazkur ko'rsatkich mintaqadagi boshqa davlatlar (Qozog'iston – 9 foiz, Rossiya – 20 foiz), shuningdek, nisbatan ko'proq rivojlangan mamlakatlardan (AQSh – 26 foiz, Xitoy – 31 foiz, Janubiy Koreya 44 foiz) ancha orqada.

Kelgusi yillarda O'zbekistonda elektron tijorat bozorining o'sishi quyidagi omillar asosida ta'minlanishi mumkin:

- Aholi daromad darajasining o'sishi;
- Internet auditoriyaning o'sishi;
- Internet foydalanuvchilarni elektron tijoratga jalb qilinish darajasi;
- Mahsulot toifalarining ko'payishi;
- Mahsulot toifalari ichida xaridlarning o'sishi;
- Xarid hajmining o'sishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda elektron tijorat bozori o'sishiga yuqoridagi omillar bilan birgalikda quyidagi omillar ta'sir qilishi ham kutilmoqda:

- Internet qamrovi va tezligi oshishi – buning natijasida ko‘proq odamlar onlayn xarid platformalariga kira oladi.
- Odamlarning smartfonlardan foydalanish imkoniyati oshishi va mobil banking tizimidagi yutuqlar – bu raqamli tranzaksiyalarni osonlashtiradi, xaridorlar elektron savdo jarayoniga jalb etilishini yanada qulayroq qiladi.
- Xufiyona iqtisodiyot bilan kurashning davom ettirilishi – bu investorlarda xotirjamlikni oshirishi va elektron tijorat sektoriga ijobiy ta‘sir o‘tkazishi, bozor hajmining o‘shishiga olib kelishi kutilmoqda.
- Iqtisodiyotdagi naqd pulsiz to‘lovlar ulushining o‘shishi uchun harakat qilinishi – O‘zbekiston naqd pulsiz to‘lovlar ulushi bo‘yicha qo‘shni va rivojlangan mamlakatlardan ortda hisoblanadi. Bu o‘z-o‘zidan mamlakatda raqamli to‘lov usullarining moslashuvchanligini rag‘batlantirish orqali elektron tijorat bozorida o‘shishiga erishish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 29 sentyabr 2022 yildagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-sonli Qonunini.
2. Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Kenjabayev Aman Turgunovich, Ro‘ziyev Abdumalik Ortig‘aliyevich. Elektron tijorat. Darslik.-T.:2023.-298b.
3. Azatovna, Y. G., & Ortikalievna, B. M. (2022). The development of social infrastructure as a factor in managing the innovative development of the region. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 65-70.
4. Юлдашева, Г. А. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ОПЫТА В ФОРМИРОВАНИИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ДОХОДНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. Ta‘lim fidoyilari, 8, 172-185.
5. Eshmuhammadovna, S. D. (2022). ECONOMETRICA VA INFORMATICS FANLARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TECHNOLOGYLARIGA ASOSLAB KKKKKT'i Ch METODIKASI. Science and innovation, 1, 234-240.
6. Сафарова, Д. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЛАСТИ СТАТИСТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 171-177.
7. Yuldasheva, G. A., & Toirjonov, J. (2022). DEVELOPMENT OF SOCIAL INFRASTRUCTURE-DEVELOPMENT OF THE REGION. Gospodarka i Innowacje., 29, 149-154.

8. Юлдашева, Г. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РОЗНИЧНОЙ И ОПТОВОЙ ТОРГОВЛИ С УЧЕТОМ ИНФЛЯЦИИ. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 164-166.

9. Юлдашева, Г. А. (2023). ФИНАНСОВАЯ ОТЧЕТНОСТЬ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ОПТОВОЙ И РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ В АСПЕКТЕ АВТОМАТИЗАЦИИ. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 167-170.

10. Safarova, D. E. (2023). IMPORTANCE AND PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY IN INTERNATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. Publishing House "Baltija Publishing".

11. Safarova, D. E. (2022). ECONOMETRIC MODEL OF SOCIO-ECONOMIC FACTORS AND ASPECTS OF DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 138-143.

12. Safarova, D. E. (2023). IMPORTANCE AND PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY IN INTERNATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. Publishing House "Baltija Publishing".

13. Safarova, D. E. (2022). Innovative Changes and Tendencies in the Development of Statistics. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 129-135.

14. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2023/E-commerce-in-Uzbekistan.pdf>

15. stat.uz